

YO‘LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti assistenti, Andijon, Uzbekistan.

Sayidbek Abduvayidovich Shodmonov

Andijon mashinasozlik instituti assistenti, Andijon, Uzbekistan.

Guldona Akbarjon qizi Turg‘unova

Andijon mashinasozlik instituti assistenti, Andijon, Uzbekistan.

Shahar transportining eng ko‘p tarqalgan turlariga tramvay, avtobus, trolleybus, yengil taksi avtomobili va metropoliten kiradi [1-4].

Ushbu yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan transport vositalari quyidagi belgilariga qaraba guruhlariga bo‘linadi:

Vazifasiga ko‘ra– umumfoydalanishdagi, yaqqola tartibdagi foydalanishdagi va korxonalarga tegishli. Umumfoydalanish transport vositalariga: tramvay, trolleybus, avtobus, metropoliten, yengil avtomobil-taksi, ikkinchisiga shaxsiy foydalanuvdagi yengil avtomobillar, mototsikllar, velosiped va mopedlar, uchinchisiga esa korxona va tashkilotlarga qarashli avtobus va yengil avtomobillar kiradi [5-8].

Foydalanish xarakteriga ko‘ra –oldindan ma‘lum yo‘nalishlarda tashishlarni amalga oshiruvchi va yo‘lovchilar tomonidan belgilangan yo‘nalishlarda harakatlanuvchi (turistik, buyurtmali) hamda yengil avtomobil-taksilarga bo‘linadi.

Tashish turiga ko‘ra – Shahar ichida, Shahar atrofida, mahalliy, Shaharlararo, xalqaro va turistik.

Shahar ichida ishlovchi avtobuslar ma‘lum yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Shahar atrofi yo‘nalishlarida ishlovchi avtobuslar yo‘lovchilarni Shahardan Shahar atrofiga tashishga mo‘ljallangan.

Mahalliy yo‘nalishlardagi tashishlar tumanlar markazlari, jamoa xo‘jaliklari, aholi yashash joylarini birlashtirishga mo‘ljallangan.

Shaharalararo tashishlarga Shahar va posyolka chegarasidan 50 km dan ortiq masofaga tashishlar kiradi.

Xalqaro avtomobil transporti bilan yo‘lovchilarni tashishda davlatlararo chegaralar kesib o‘tiladi [9-11].

Yo‘lovchi avtomobil transporti vositalari tasnifi. O‘zbekiston Respublikasining 29 avgust 1998 yilda 674-1 raqam bilan qabul qilgan “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuninig 3-moddasida **avtotransport vositasi** deganda yo‘lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar tushunishligi qayd qilingan [12--14].

Avtobus atamasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 4 noyabr 2003 yildagi 482-qarorining birinchi paragrafida quyidagicha ta’rif berilgan: **avtobus** - yo‘lovchilarni, bagajni tashishga mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda 8 tadan ortiq o‘rindiqqa ega bo‘lgan avtotransport vositasi.

Aholining tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda birinchi o‘rinda avtomobil transporti vositalaridan biri bo‘lgan avtobuslar alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda 1,5 mln. dona yengil avtomobil, 300 ming dona yuk avtomobili va 73 ming dona avtobus mavjud bo‘lib ular yordamida har yili 3 mlrd. yo‘lovchi tashilmoqda. Birinchi avtobus qatnovi 1906 yilda Farg‘ona-Marg‘ilon Shaharlari o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan. 1910 yili Toshkentda birinchi avtobuslar paydo bo‘lgan. Xorijdan keltirilgan 8 ta kichik avtobus va bitta 40 o‘rinli avtobus Shahar ko‘chalarida qatnay boshlagan [15,16].

Avtobuslar ishlatilishiga, o‘lchamiga, sig‘imiga, kuzov tipiga, qavatligiga, konstruktiv xususiyatlariga va boshqa belgilariga qarab turlarga ajratiladi.

Uzunligiga qarab avtobuslar 5 ta sinfga ajratiladi: juda kichik, kichik, o‘rta, katta, qo‘shaloq (1-jadval).

1-jadval

Uzunligiga qarab avtobuslarning turlarga ajratilishi

Avtobuslar turi	Uzunligi, m	Foydalanish sohasi
Juda kichik	5 m gacha	Umumiy
Kichik	7,0-7,5	Shahar sayyohlik yo‘nalishlarida
O‘rta	8,0-8,5	Shahar va shaharlararo yo‘nalishlarda
Katta	9-9,5; 10-11; 11,5-12	Shahar yo‘nalishlarida
Juda katta	16,5-18; 22-24	Shahar yo‘nalishlarida

Sig‘imiga qarab shahar ichida foydalaniladigan avtobuslar 5 turga: juda kichik (umumiy sig‘imi - 10 yo‘lovchi), kichik (umumiy sig‘imi – 35-40 yo‘lovchi), o‘rta (umumiy sig‘imi - 45-75 yo‘lovchi), katta (umumiy sig‘imi – 85-90 yo‘lovchi) va birlashtirilgan (umumiy sig‘imi – 135-140 yo‘lovchi), shahardan tashqarida foydalaniladigan avtobuslar esa 4 turga: kichik (umumiy sig‘imi – 30-35 yo‘lovchi), o‘rta (umumiy sig‘imi – 45-65 yo‘lovchi), katta (umumiy sig‘imi– 80-85 yo‘lovchi) turga ajratiladi [17-18].

Avtobuslar kuzovining turiga va qavatlilikiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi.

- kuzovning shakliga qarab vagon va kapot tipli;
- qavatlilikiga qarab: bir, bir yarim va ikki qavatli. Dvigatelning turiga qarab avtobuslar quyidagi turlarga bo‘linadilar:
- karbyuratorli (benzinda va gazda ishlovchi);
- dizelli;
- elektrik (elektrobular).

Avtobuslarda dvigatel kuzovning oldida, orqasida yoki polning tagida joylashishi mumkin.

Yengil avtomobillar ishlatilishiga, kuzov turiga, dvigatelning ishchi xajmiga va og‘irligiga qarab turlarga ajratiladi.

Ishlatilishiga qarab yengil avtomobillar umumfoydalanishdagi, xizmatchi, prokatdagi va shaxsiy avtomobillarga ajratiladi.

Avtobuslar va yengil avtomobillar kuzovlar tuzilishiga qo‘yiladigan talablar.

Shahar avtobuslari konstruksiyasiga qo‘yiladigan talablardan biri avtobuslarning gabarit o‘lchamlarini o‘zgartirmasdan turib uning yo‘lovchi sig‘imini oshirish imkoniyatidir. Bu holatda yo‘lovchilarning ma‘lum bir qismi qisqa (o‘rtacha 3-4 km) masofalarga qatnashi e‘tiborga olinadi. Shahar ichi tashishlarida aloqa tezligi 20-22 km/soat bo‘lib, yo‘lovchilar harakatlanish vaqti o‘rtacha 15-20 minutdan oshmaydi. Bundan tashqari sutka soatlari ichida yo‘lovchilar oqimining notekisligi ham ahamiyatga ega. SHuning uchun Shahar ichi avtobuslarida o‘tirish joylari avtobus sig‘imidan ancha kam bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Avtobus kuzovini rejalashtirishda yo‘lovchilarning avtobus ichida, unga chiqish va tushishda harakatlanishini ham ta‘minlanishi kerak. Avtobus eshiklari atrofida 2,5-4 m² atrofida maydoncha bo‘lishi kerak.

Shaharlararo yo‘nalishlarda qatnovchi avtobuslar qo‘lni tirash va suyanib ketish mumkin bo‘lgan yumshoq qoplamali kreslolar bilan jihozlanishi kerak [19-21].

Avtobus eshiklarining o‘lchamlari va konstruksiyasi alohida o‘rin tutadi. Shahar avtobuslari 2-3 eshikli, shaharlararo avtobuslar esa bir eshikli bo‘ladi.

Avtobuslarning o‘tirish joylari qulay, harakat tezligi yuqori, kuzovning tebranishi kam, yaxshi yoritilgan, havo aylanishi va isitilishi ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Shaharlararo va turistik avtobuslarda o‘tirish joylari qancha bo‘lishidan qat‘iy, nazar bagaj uchun maxsus joylar bo‘lishi lozim. Bagaj joylari 6-8 bagaj o‘rniga qarab otseklarga bo‘linadi. Bunda bir yo‘lovchiga 0,1 m² dan kam bo‘lmagan bagaj maydoni to‘g‘ri kelishi kerak [22-26].

Haydovchi ish joyining tuzilishi. Avtobus haydovchisining ishi boshqa avtomobillar haydovchilarining ish sharoitidan ancha farq qiladi. Masalan bir soatda uzatmalar qutisi 160-180 marta o‘chirib yoqiladi va 35-40 marta tormoz beriladi. Bunday katta jismoniy bosim haydovchini toliqtiradi. Haydovchining ish sharoitini yaxshilash uchun mehnat jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va ish joyini yaxshi tashkil etish talab etiladi [27-30].

Haydovchining ishdagi zo‘riqishi va majburiyatini hisobga olib harakat vaqtida maksimal xavfsizlikni hamda charchoqni kamaytirish maqsadida unga qulaylik yaratish talab etiladi. Shahar sharoitida ishlovchi avtobus haydovchilari jismoniy toliqishdan tashqari ko‘cha harakatidagi intensivlik va tez-tez to‘xtashlar natijasida asabiylashadilar. Shaharlararo qatnovchi avtobus haydovchilari esa buladan tashqari katta tezlikda harakatlanishi natijasida ham asabiylashishlari ortadi.

Haydovchi kabinasidagi harorat va ventilyasiya 20⁰S atrofida bo‘lishi kerak.

Yengil taksi avtomobillari kuzovi va konstruksiyasiga qo‘yiladigan umumiy talablar shaxsiy foydalanishdagi yengil avtomobillarnikidan farq qiladi. Taksilar sig‘imi to‘rt yo‘lovchidan iborat. Haq to‘lanuvchi qatnovlar bir-ikki yo‘lovchi bilan 70-75% ni, uch yo‘lovchi bilan 15-20% ni, to‘rt yo‘lovchi bilan 5-10% ni tashkil etadi. Taksi avtomobili kuzovlari tanish belgilari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.A.Xomidov . XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI TURLARI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №22(198) Часть 5, 9-12 ст.
2. Xomidov, AA, Abdurasulov, MSh . YO’LOVCHI VA YUK TASHISH SHARTNOMASI VA UNING MAZMUNI, MOHIYATI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №45(221) Часть 3, 98-99 ст,
3. Xomidov, A.A., Abdirahimov, A.A. (2021). TRANSPORT LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR VA OMBORLASHTIRISH. *Internauka*,(45-3) , 100-103.
4. Gafforov Mukhammadzokir, Tursunboyev Murodjon LOGISTIC MANAGEMENT OF URBAN PUBLIC TRANSPORT // Бюллетень науки и практики. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/logistic-management-of-urban-public-transport> (дата обращения: 24.11.2022).
5. Gafforov Mukhammadzokir, Akromaliyev Otkir DIGITALIZATION OF CUSTOMS DUTIES // Бюллетень науки и практики. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/digitalization-of-customs-duties> (дата обращения: 24.11.2022).
6. Akbarjon, Gaffarov Makhamatzokir METHODS OF PASSENGER TRANSPORT LOGISTICS DEVELOPMENT IN THE CITY // Бюллетень науки и практики. 2020. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-passenger-transport-logistics-development-in-the-city> (дата обращения: 24.11.2022).
7. Саримсаков Акбар Муминович ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПАССАЖИРСКОМ ТРАНСПОРТЕ // Universum: технические науки. 2021. №10-2 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-passazhirskom-transporte> (дата обращения: 24.11.2022).
8. Насиров, И. З., & Уринов, Д. О. (2021). Технология получения экологически чистого топлива для автотранспорта. *Научно-технический журнал НамИЭТ (Наманган муҳандислик технологияи институти илмий-техника журнали), Наманган: НамМТИ*, 188-193.
9. Nasirov Ilham Zakirovich , Rakhmonov Khurshidbek Nurmuhammad ugli , Abbasov Saidolimkhon Jaloliddin ugli. (2022). Tests Of The Braun Gas

-
- Device. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1545–1550. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S08.185>.
10. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова «Тарози тошларининг яратилиш тарихи». Фан ва жамият журналы 2022/3
11. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова Физика фанининг шаклланишида Осиё алломаларининг ўрни. Наманган муҳандислик технология институти ФИЗИКА-2022 Форум 3 октябрь 2022 йил.
12. G.Komolova. “Hosilani ketma-ketlikdagi baʼzi masalalarni yechishga tadbiqʻi.” “OʻZBEKISTON VA AVTOMOBIL SANOATI: FAN, TAʼLIM VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASI” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 386-389 betlar, AndMI.
13. Комолова Гулхаё, Халилов Муродил, “Stages of drawing up a mathematical model of the economic issue”, *Journal of ethics and diversity in international communication*. Испания -2022.
14. Тоʻuchiyev.Sh.Sh, &. A. (2022 г.30-апрел). BAʼZI NOANʼANAVIY MASALALARNING YECHIMLARI. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, с.т: 65-68.
15. Sarimsakov Akbarjon, Gaffarov Makhamatzokir METHODS OF PASSENGER TRANSPORT LOGISTICS DEVELOPMENT IN THE CITY // Бюллетень науки и практики. 2020. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-passenger-transport-logistics-development-in-the-city> (дата обращения: 24.11.2022).
16. Саримсаков Акбар Муминович ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПАССАЖИРСКОМ ТРАНСПОРТЕ // Universum: технические науки. 2021. №10-2 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-passazhirskom-transporte> (дата обращения: 24.11.2022).
17. Мирзаев Қахрамонжон Султонович 2022/5/25 Илм-фан, маданият, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари ҳамда уларнинг иқтисодиётга таъсири. Андижон машинасозлик институти ва Воронеж Давлат техника университети, 299-303 б.
18. Қ.С.Мирзаев ва Ҳ.Қ.Ахмаджонова 2022/4/22 Автомобилларга оид мутахассисликларда таҳсил олаётган талабаларда экологик билим ва маданиятни шакллантиришда, янги педагогик технологиялардан

- фойдаланиш масалалари, Инновационные подходы к современной науке. Российский университет Дружбы народов. Москва, Том-3, №3, 68-70 б.
19. Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich, Abbasov Saidolimxon Jaloliddin o'g'li, & Xomidov Anvarbek Axmadjon o'g'li. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(1), 83–90. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1970>
20. Аббасов Саидолимхон Жалолиддин угли, Шодмонов Сайидбек Абдувайитович, & Хомидов Анварбек Ахмаджон угли. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 9(1), 101–108. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972>
21. Шодмонов С. А., Ортиков С. С., Abdiraxmonov R.A International journal for innovative Engineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3 3 0.33 ball>
22. Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Определить Поток Пассажинов В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 79-87. <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/269>
23. Носиров, И. З., & Умаров, А. А. (2014). Озонная смесь для двигателя внутреннего сгорания. *Вестник АСТА Туринского политехнического университета в городе Ташкенте*, (4), 55-59.
24. Насиров И.З., Тешабоев У.М. Высокоэффективный реактор с электролизёром для двигателя внутреннего сгорания // Просвещение и познание. 2022. №1 (8). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vysokoeffektivnyy-reaktor-s->

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

- elektrolizyrom-dlya-dvigatelya-vnutrennego-sgoraniya (дата обращения: 23.11.2022).
25. N.I. Karimxadjayev I.B. Erkinov G.A. Turgunova (2021) “Development of the foundation of integrated methods of teaching the theoretical knowledge in the distance education system using information technology” “Proceedings of ICRAS-2021 International Conference, 52-55.
26. T.O. Almataev G.A. Turgunova (2021) **“Plastics in automotive industry” journal of innovations in scientific and educational research volume-1, issue-7 (part-1, 30-october), 16-24.**
27. Г.А. Тургунова (2021) “Бринелл усулида материал қаттиқлигини аниқлаш жараёни таҳлили” “Интернаука” часть 6, 31-34.
28. Рахмонов, Х. Н., & Насиров, И. З. (2021). Обогащение синтез газом топливозвоздушной смеси ДВС. In *Матер. Международной научно-практической конференции "Современные технологии: проблемы инновационного развития и внедрения результатов (5 августа 2021 г.)"*. Петрозаводск: МЦНП "Новая наука" (p. 21).
29. Rahmatullo Rafuqjon o'g'li Rahimov (2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat xavfsizligini ta'minlash uslublarini takomillashtirish yo'llari. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, 750-754.
30. Zakirovich, N. I., Muminovich, S. A., Mirzaahmadovich, T. U., & Toshtemirovich, G. M. Tests of a reactor for supplying hydrogen and ozone to an internal combustion engine. *International Journal of Early Childhood Special Education (INTJECSE)* ISSN, 1308-5581.